



Date: 24 April 2026

PAHLAVON MAHMUD RUBOIYLARIDA IJTIMOIIY HAYOT MOTIVI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Pahlavon Mahmudning ijodi tahliliga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "yor", "do's", "ma'shuqa", "jonon", marhamat va shafqat, saxovat va olijanoblik.

Pahlavon Mahmud Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko'ra Pahlavon Mahmud deb atalgan. Fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Xayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan shoir Pahlavon Mahmuddir. U Umar Xayyomning oddiy taqlidchisi bo'lmay, mushohada kuchi jihatidan u bilan barobar turgan. Pahlavon Mahmud shahar hunarmand-kosiblarining futuvvat-javonmardlik harakati (13 – 14-asrlar) tashkilotchisi, ma'naviy rahnamosi bo'lgan. Ko'pchilik ruboiylari mardlik, marhamat va shafqat, saxovat va olijanoblik kabi javonmardlik qoidalari asosida yozilgan. Ruboiylari fikrning ravshanligi, mazmunning teranligi, obrazlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularda «yor», «do'st», «ma'shuqa», «jonona» kabi so'zlar turli ma'nolarda, so'fiyona she'rlaridan «Olloh» ma'nosida keladi. Pahlavon Mahmudga nisbat beriladigan «Hazrati Pahlavon ruboiylari»ning qo'lyozma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Pahlavon Mahmud ruboiylarida Qur'oni karim va Hadisi sharif ta'siri kuchli. Zero, Sharqdagi deyarli barcha shoirlar bu ikki ulug' manbadan bahramand bo'lib, ijod qilganlari sir emas.

RUBOIYLAR

Umrimiz daraxtin past qilma, Rabbii,

Borliq sharobidan mast qilma, Rabbii.

O'zing karam birla mard yigitlarni

Nokaslarga zeri dast qilma, Rabbii.

Dedim: ayt, umrning ma'nosi nima?

Dedi: chaqmoq, yo sham, yoki parvona

Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?

Dedi: yo go'l, yo mast, yoki devona.

Pahlavon Mahmud umrning o'tkinchiligini bir chaqmoq chaqishiga yoki yonib tugaydigan shamga qiyoslab, unga go'l yoki ahmoq insongina mehr qo'yishini aytadi.

Adib yana bir ruboiysida oddiy qora tosh hech qachon qimmatbaho tosh kabi tovlanib, ko'zlarni quvontirmaganidek, qo'rqqoqlardan ham hech qachon mard chiqmasligini ta'kidlaydi.

Haqiqiy mard, g'ayratli kishi o'z ahli ayolini ko'chada darbadar qilib qo'ymasligini uqtirib, uning oqibati yaxshi bo'lmasligini aytadi va yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etadi.

Pahlavon Mahmud hayoti va ijodidan o'rnak olsak, arziydi. Uning ruboiylari yuksak ma'naviyatli, o'tkir mushohadali asar sifatida yoshlarni tarbiyalab kelmoqda.





Date: 24 April 2026

Ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini toping.

1. Adib Ahmadning otasi Mahmud bo'lib, u Yugnakda istiqomat qilgan.

A)To'g'ri B) Noto'g'ri

2. Adib Ahmad haqida Alisher Navoiy o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida juda muhim ma'lumotlarni beradi:

A)To'g'ri B) Noto'g'ri

3. Alisher Navoiy aytgan fikrlar, shuningdek, asarning uyg'ur va arab harflari bilan ko'chirilgan nusxalarining ko'plab tarqalishi asarning Navoiy yashagan davrda ham ancha mashhur bo'lganini ko'rsatadi.

A)To'g'ri B) Noto'g'ri

4. «Hibat ul haqoyiq» asarini «qashqarcha til» bilan yozilgan.

A)To'g'ri B) Noto'g'ri

5. Shoir «Hibat ul-haqoyiq»ni tugatib, uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi.

A)To'g'ri B) Noto'g'ri

6. Alisher Navoiy aytgan fikri:

Tamomi erur qashqariy til bila, Ayitmish adib riqqati dil bila. Agar bilsa qashqar tilin har kishi, Bilur ul adibning nekim aymishi.

A)To'g'ri B) Noto'g'ri

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To'xliyev va boshqalar Adabiyot.(11-sinf va o'rta maxsus uchun darslik-majmua). O'zbekiston milliy esklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti T, 2018
2. B.To'xliyev. Adabiyot (ALlarning I kurs talabalari uchun majmua). – T. 2013.